

Ma'rufov Farrux Odil o'g'li

Toshkent davlat texnika universiteti, "Sanoat dizayni" kafedrasida katta o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Bu maqolada ko'p qavatli zamonaviy uylarda, xonalar yuzasidan oqilona foydalanishda transformatsiyalanadigan divanlar, ularning transformatsiya mexanizm turlari haqida misollar bilan ma'lumotlar va ularning afzalliklari, kamchiliklari aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** transformatsiya, funksional, mexanizm, buklanadigan, quti.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, inson hayoti mebellar bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyatning rivojlanishi bilan mebellarga bo'lgan talab ham ortib borgan. Zamonaviy uylarni, xona interyerlarini qulay va chiroyli mebellarsiz tassavvur qilish qiyin. Yumshoq mebellar nafaqat xonaning ko'rki, balki u maishiy qulaylikdir. Mebellar orasida eng ko'p qo'llaniladigani, bu yumshoq divanlardir. Inson hayotida divan katta ahamiyatga ega, unda qulay joylashib kitob o'qishi, televizor ko'rishi yoki dam olishi, yotib uxlashi mumkin.

Divanlardan foydalanishda o'ziga xos talablari ham mavjud, ya'ni mebelning ixchamliligi, funksionalliligi va transformatsiyaning mavjudligidir. Transformatsiyaning asosiy maqsadi, bu mebellarning maqsadga muvofiqligi va xona maydonidan oqilona foydalanishdir. Hozirgi zamonaviy ko'p qavatli uylardan foydalanishda bu maqsad asosiy omillardan biridir. Divanlardan foydalanishda ikkita asosiy xususiyatga ahamiyat berish lozim:

1. Divanning transformatsiyalanishiga va qulayligiga;
2. Yotoq yuzasining tekis va shinamliligiga.

Undan tashqari transformatsiyalanadigan mebellardan foydalanishda, ularning transformatsiyalanish mexanizmlarining turlariga e'tibor qaratilishi lozim. Divanlarda qo'llaniladigan transformatsiya mexanizmlarining turlari quyidagilardir:

- buklanadigan yoki taxlanadigan. Bular: "киншка", "танго" yoki "клик-кляк", "кушетка";
- oldinga tortib chiqariladigan. Bular: "еврокнишка" yoki "тик-так", "дельфин", "конрад" yoki "телескоп", "пантограф", "пума";
- ochiladigan. Bular: "французская раскладушка", "американская раскладушка" yoki "седафлекс", "аккардион".

Yuqorida keltirilgan transformatsiyalash mexanizmlarining ishlashi, ularning afzalliklari va kamchiliklari bilan tanishish maqsadida ba'zi turlari batafsil ko'rib chiqiladi.

**"Кушетка"** – bu turdagi divan buklanadigan yoki taxlanadigan transformatsiya mexanizm turiga mansubdir. "Кушетка" turidagi divan keng tarqalgan, juda qulay mebel hisoblanadi. Uning ostgi qismida yotoq va boshqa jihozlar uchun quti hisobga olingan. Yig'ilgan holatda "кушетка" qulay kichik hajmli, yumshoq divan, transformatsiyalangan holatda esa to'liq bir kishilik, ortopedik matrasli krovat holatiga keladi. "Кушетка" transformatsiya mexanizmi po'lat asosdan iborat bo'lib, maxsus egiluvchan yog'ochlar

(“лато”) yordamida panjara yasalgan va unga matras yotkaziladi. Bu esa matras bilan birgalikda qulay ortopedik yotoq joyini hosil qiladi.

“Кушетка” transformatsiya mexanizmligi divanning yana bir xususiyati, undagi qo‘lni qo‘yish uchun joyini borligidir. Bu joylar bir necha holatda bo‘lish imkoniyatiga egadir. Qo‘lni qo‘yish uchun joy transformatsiya jarayonida osongina bosh qo‘yish uchun joyga aylanadi, bu esa dam olish, uxlash uchun qulaylik yaratadi.

“Кушетка” transformatsiya mexanizmligi divanlarda, asosan “penopoliuritan” li matrasdan foydalaniladi. Divanni transformatsiyalash, ya‘ni krovatga aylantirish juda oson. “Кушетка” transformatsiya mexanizmligi divanning afzalliklari:

- transformatsiya jarayoni oson va kam kuch bilan amalga oshiriladi. Yotoq yuzasi tekis va shinam;
- yig‘ilgan holatda ixcham, kichik gabaritli divan holatiga keladi;
- divan ostida yotoq anjomlari uchun maxsus quti hisobga olingan.

Kamchiliklari:

- yotoq yuzasining nibatan kichikligi.

“Тик-так” – bu turdagi transformatsiya mexanizmligi divan oldinga tortib chiqariladigan transformatsiya mexanizm turiga mansubdir. Bu mexanizm juda sodda bo‘lib, transformatsiya jarayoni ikki amalga bajariladi. Birinchi amal, o‘rindiqli yuqoriga ko‘tariladi va ozgina oldinga tortiladi, natijada bo‘sh joy hosil bo‘ladi. Ikkinchi amalga ana shu bo‘sh joyga suyanchiqli joylashtiriladi. Bu amallarni bajarish uchun ko‘p kuch sarflanmaydi, bularni bir qo‘l bilan ham bajarish mumkin. Hosil bo‘lgan yotoq yuzasi katta, tekis va shinamdir.

“Тик-так” transformatsiya mexanizmligi divanning afzalliklari:

- transformatsiya jarayoni kam kuch bilan amalga oshiriladi;
- hosil bo‘lgan yotoq yuzasi keng va qulay;
- divan ostida yotoq anjomlari uchun joyning mavjudligi.

Kamchiliklari:

- divan yig‘ilgan holatda, uning o‘rindig‘i ancha keng.

“Американская раскладушка” – bu turdagi transformatsiya mexanizmligi divan ochiladigan mexanizm turiga mansubdir. “Американская раскладушка” mexanizmligi divan juda shinam va sifatli bo‘lib, doimiy ishlatish uchun qulaydir. “Американская раскладушка” divanini transformatsiyalash jarayoni ikki amalga bajariladi. Birinchi amal, o‘rindiqli maxsus ushlagich yordamida yuqoriga ko‘tariladi va oldinga tortiladi. Ikkinchi amalga bo‘laklar ochiladi va tayanch oyoqchalar bilan o‘rnatiladi.

“Американская раскладушка” transformatsiya mexanizmligi divanning afzalliklari:

- divan holatida ixcham;
- mexanizm ishonchli;
- yotoq yuzasi tekis, qulay va shinam;
- yotoq matراسi ortopedik xususiyatga ega.

Kamchiliklari:

- yotoq jihozlari uchun maxsus qutining yo‘qligi;

– divanni transformatsiyalash uchun ma'lum kuch talab etiladi.

**“Реклайнер”** – boshqariluvchi transformatsiya mexanizmligi divan. Bunday divanlar eng zamonaviy bo'lib, transformatsiyalash mexanizmini boshqarish mexanik yoki ko'pincha elektr quvvati yordamida amalga oshiriladi. Masalan, maxsus tugmani bosib bosh qo'yish uchun joyning holati o'zgartiriladi, orqa suyanchiq 30-45 gradusga egiladi va oyoq qo'yish uchun maxsus yuza chiqariladi. Natijada transformatsiya jarayonini amalga oshirish uchun umuman kuch sarflanmasdan, dam olish uchun qulay joy hosil qilinadi. Ana shunday transformatsiya mexanizmligi divan krovatga holatiga keltirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, ya'ni har bir o'rindiqli alohida transformatsiyalanadi. Natijada divan krovatga aylanadi. **“Реклайнер”** transformatsiya mexanizmligi divanlar, kreslolar tibbiyotda ko'p qo'llaniladi. Masalan, stomotologik yoki massaj kreslo va divanlar. Mazkur transformatsiya mexanizmi uch holatda bo'lishi mumkin. Masalan, o'tirish holati, zarur bo'lsa qisman yotish holati yoki yotish uchun suyanchiq gorizontol holatga keltiriladi. Bu holat **“relaks”** deb ataladi. Boshqacha aytganda **“реклайнер”** transformatsiya mexanizmligi divan inson tanasining shakliga moslashadi. Divan **“реклайнер”** larning holati uch turda bo'ladi:

1. Standart holat. Bu o'tirgan odamning standart holati. Bunday holatda suyanchiq burchagi 100 gradus, oyoq qo'yish uchun maxsus yuza chiqarilmaydi. Divanning bunday holati dam olish, kitob o'qish uchun qulaydir.

2. Bu holatda suyanchiq orqaga taxminan 110 gradusga og'adi, oyoq uchun oyoq qo'yish uchun maxsus yuza chiqariladi. Bunday holatda televizor ko'rish juda qulay.

3. **“Relaks”** holati. Bu holatda divan suyanchig'i 130-150 gradusga og'adi, oyoq qo'yish uchun maxsus yuza ko'tariladi, o'rindiqliqning joylashish burchagi o'zgaradi. Bunda o'tirish juda qulay bo'ladi.

Tarixga nazar tashlansa birinchi **“реклайнер”** lar XX asr oxirida paydo bo'lgan. **“Реклайнер”** ingliz tilidan tarjima qilinsa **“orqaga tashlash”** (**“откидывается назад”**) ma'nosini anglatadi. **“Реклайнер”** turidagi divanlar quyidagi afzalliklarga ega:

- juda qulay, chunki barcha transformatsiya amallari maxsus pult yordamida amalga oshiriladi;
- uzoq muddat ishlashi. Kafolatlangan muddat ichida ta'mirlash imkonini borligi.
- antiqaligi;
- modulliligi, ya'ni divan modul to'plami natijasida yig'iladi. Bunday variant kichik xonalar uchun juda qulaydir.

#### **Xulosa**

Zamonaviy katta shaharlarda ko'p qavatli uylarning shiddat bilan ko'payishi natijasida xona yuzalaridan oqilona foydalanish asosiy omillarda biri hisoblanadi. Ana shu omilni hal etish yo'llaridan biri transformatsiyalanadigan, ko'p funksiyali mebellardan foydalanishdir. Shu sababdan mebel tanlashda transformatsiya mexanizmlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini bilish lozimdir.

Maqolada aynan ana shu masalalarga va transformatsiya turlarini e'tiborga olgan holda mebellarni tanlash misollar bilan yoritilgan.

#### **ADABIYOTLAR:**



1. Кес Д. Стили мебели // Издательство Академии Наук Венгрии. Будапешт, 1979.
2. Генрих Гацура // Мебельные стили, Москва-ММV.
3. Abdusalyamova S. Stages of development of corrugated cardboard furniture in the xx century and its features // Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. А2. – С. 79-83.
4. Одилова С.Д. Этнографические источники Средней Азии: семантика декоративноорнамента // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 172-176.
5. Rakhmanov J. Application of different popular styles in furniture design // Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. А1. – С. 158-162.
6. Goyipov B.B. The goals and objectives of composition in the fine arts // Science and Education in Karakalpakstan. 2023 №1/1 ISSN 2181-9203.
7. Маъруфов Ф.О. Перспектива метода трансформации мебели. // Развитие актуальные вопросы современной науки”. – №4(11) 2018. г.Магнитогорск., 2018 г.
8. Маъруфов Ф.О. Трансформируемая мебель. //Наука, образование и культура”.– Российская Федерация, зарубежные страны. – Издательство “Проблемы науки” Москва №2 (57), 2021 год.
9. Маъруфов Ф.О. Стиль мебели в современных квартирах // Academy. 2021. №6 (69). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/stil-mebeli-v-sovremennyhkvartirah>.
10. Ma’rufov F. Some types of transformation used in sofas // Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. А2. – С. 209-212.
11. <https://bg.versal-wood.com/203-french-folding-sofa-pros-and-cons/>.
12. <https://www.moon-trade.ru/card/103949>.
13. <https://www.anderssen.ru/information/articles/mehanizm-transformacii-tango>.
14. <http://bfmm.by/poleznaya-informacia/mehanizmyi-transformatsi.html>.